



O'ZBEKISTON EKSPORTINING O'SISH OMILLARI: MAHSULOT VA BOZOR DIVERSIFIKATSIYASI TAHLILI

Otamurodov Shavkat

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

ORCID: 0000-0003-2464-8103

shavkat_otamurodov@tues.uz

Eshqulova Nasiba

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

ORCID: 0009-0008-4177-4084

nasiba_eshqulova@tues.uz

Annotatsiya. Maqolada 2017–2024 yillar davomida O'zbekiston eksportining tarkibiy diversifikatsiyasi empirik jihatdan tahlil qilinadi. Gorizontaal diversifikatsiya eksport qilinayotgan mahsulotlar soni va Herfindal–Hirshman indeksi asosida, vertikal diversifikatsiya esa mahsulotlarning o'rtacha eksport qiymati orqali baholangan. Regressiya natijalari shuni ko'rsatadiki, eksport qilinayotgan mahsulotlar sonining ortishi eksport hajmiga ijobiy va ahamiyatli ta'sir ko'rsatadi. Uzoq xorij mamlakatlari bilan savdo aloqalarida esa mahsulotlarning nafaqat soni, balki ularning yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu vertikal diversifikatsiyani rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Tadqiqot shuningdek, O'zbekiston eksportining ayrim mahsulotlarga, xususan, oltinga yuqori darajadagi qaramligini aniqladi. Yuqori transport xarajatlarini hisobga olgan holda, qayta ishlangan, innovatsion va raqobatbardosh mahsulotlarni eksport qilish O'zbekiston tashqi savdosining barqarorligini ta'minlashda muhim hisoblanadi.

Kalit so'zlar: eksport diversifikatsiyasi, gorizontaal diversifikatsiya, vertikal diversifikatsiya, eksport hajmi, iqtisodiy barqarorlik.

ФАКТОРЫ РОСТА ЭКСПОРТА УЗБЕКИСТАНА: АНАЛИЗ ТОВАРНОЙ И ГЕОГРАФИЧЕСКОЙ ДИВЕРСИФИКАЦИИ

Отамуродов Шавкат

Термезский университет экономики и сервиса

Эшқулова Насиба

Термезский университет экономики и сервиса

Аннотация. В статье проведён эмпирический анализ структурной диверсификации экспорта Узбекистана за 2017–2024 годы. Горизонтальная диверсификация оценивалась по количеству экспортируемых товаров и индексу Херфиндала–Хиршмана, вертикальная – на основе средней экспортной стоимости. Результаты регрессии показывают, что увеличение числа экспортируемых товаров положительно и значимо влияет на объём экспорта, особенно в страны ближнего зарубежья. Для стран дальнего зарубежья важно не только разнообразие товаров, но и их высокая добавленная стоимость, что подчёркивает необходимость развития вертикальной диверсификации. Также выявлена высокая зависимость от экспорта

отдельных товаров, особенно золота. В условиях высоких транспортных затрат для Узбекистана особенно актуально наращивание экспорта переработанных и высокотехнологичных товаров.

Ключевые слова: диверсификация экспорта, горизонтальная диверсификация, вертикальная диверсификация, объём экспорта, экономическая устойчивость.

DETERMINANTS OF UZBEKISTAN'S EXPORT GROWTH: AN ANALYSIS OF PRODUCT AND MARKET DIVERSIFICATION

Otamurodov Shavkat

Termez University of Economics and Service

Eshkulova Nasiba

Termez University of Economics and Service

Abstract. This paper presents an empirical analysis of Uzbekistan's export structural diversification during 2017–2024. Horizontal diversification is measured by the number of exported products and the Herfindahl–Hirschman Index, while vertical diversification is evaluated through average unit export values. Regression results reveal that an increase in the number of exported products significantly boosts export volume, especially for trade with neighboring countries. For distant markets, both product variety and higher value-added goods play an important role, emphasizing the need to promote vertical diversification. The study also finds a high dependency on a limited number of export items, particularly gold. Given Uzbekistan's landlocked position and high transport costs, shifting toward processed, value-added, and technologically advanced exports is essential for sustainable growth.

Keywords: export diversification, horizontal diversification, vertical diversification, export volume, economic stability.

Kirish.

So'nggi o'n yilliklarda globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, xalqaro bozorlar dinamikasi va raqobatning keskinlashuvi milliy iqtisodiyotlar oldida turli xavf-xatarlarni yuzaga keltirmoqda. Xalqaro moliyaviy-iqtisodiy inqirozlar, pandemiya, siyosiy kelishmovchiliklar vujudga kelgan savdo cheklovlar barcha mamlakatlar uchun bu kabi muammolarning milliy iqtisodiyotga zararini minimallashtirish choralari ishlab chiqish zarurligini yana bir bor ko'rsatdi. Shu nuqtai nazardan, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashning asosiy vositalaridan biri tashqi savdo diversifikatsiyasi hisoblanadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida tashqi savdo diversifikatsiyasi muhim. Eksportning bir nechta mahsulot va bozorga qaram bo'lishi iqtisodiyotning o'zgaruvchan tashqi muhitdan yuqori darajada ta'sirlanishiga olib keladi. Shu sababli ishlab chiqarish va tashqi savdo diversifikatsiyasi milliy iqtisodiyotning muhim strategik yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Savdo diversifikatsiya har doim ham ijobiy natija bermasligi mumkin. Iqtisodiy adabiyotlarda noto'g'ri boshqarilgan yoki yetarli institutsional tayyorgarliksiz amalga oshirilgan diversifikatsiya iqtisodiy o'sishga hissa qo'shmasligi bilan birga resurslarning samarasiz taqsimlanishiga olib kelishi mumkinligi qayd etilgan. Bugungi kunda ko'plab davlatlar iqtisodiy o'sishni faqat bir necha resurs yoki xomashyo turi hisobiga ta'minlash o'rniga, yuqori qo'shilgan qiymatga ega tarmoqlarni rivojlantirish, ishlab chiqarishni kengaytirish va yangi bozorlar qidirish orqali o'z iqtisodiyotini diversifikatsiya qilishga intilmoqda. Tashqi savdo diversifikatsiyasiga oid tadqiqotlarda uning ikki asosiy turi, vertikal va gorizontal diversifikatsiyaning eksport va mamlakat iqtisodiy barqarorligiga ta'siri o'rganilgan. Vertikal diversifikatsiya iqtisodiyotdagi mavjud tarmoqlarda xom ashyo o'rniga tayyor, qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan mahsulotlar eksportini ko'paytirishni nazarda tutadi,

Gorizontal diversifikatsiya undan farqliroq, mamlakatning yangi, turlicha mahsulotlar yoki xizmatlar turlarini eksport qilishni boshlashi, ya'ni mavjud mahsulotlardan tashqari boshqa tarmoqlarda ham eksport faoliyatini rivojlantirishi nazarda tutiladi. Vertikal diversifikatsiya eksportda qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan mahsulotlar paydo bo'lishi hisobidan uning foydaliligini oshirish, uning xom ashyoga bog'liqligini kamaytirish asosiy maqsad hisoblanadi. Gorizontal diversifikatsiya eksport tarkibida yangi mahsulotlarning paydo bo'lishi, tashqi bozorlardagi o'zgarishlarga moslashuvchanlikni oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga gorizontal diversifikatsiya yangi tarmoqlarni shakllantirish, ularning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirish uchun katta investitsiya va vaqt talab yetadi. Shu sababli ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlar uchun xalqaro qo'shilgan qiymatlar zanjirida o'rin olish orqali vertikal diversifikatsiyani ta'minlash eksportni ko'paytirish uchun muhim hisoblanadi. Shu sababli mamlakatimiz eksportida diversifikatsiya qaysi yo'nalishda amalga oshirilayotganligi, ularning eksport o'sishidagi hissasini aniqlash dolzarb masaladir. Ushbu ma'lumotlar asosida mamlakatimiz tashqi savdo siyosatini takomillashtirish va eksport hajmini barqaror o'sishini ta'minlashi mumkin bo'ladi.

Adabiyotlar sharhi.

Eksport diversifikatsiyasi bo'yicha zamonaviy tadqiqotlar eksport strukturasini kengaytirish va chuqurlashtirishning iqtisodiy o'sish va barqarorlikka ijobiy ta'sirini izchil asoslab bermoqda. Diversifikatsiyaning nazariy asoslari va uning strategik ahamiyati S. Dhir tomonidan keng yoritilgan bo'lib, muallif turli yondashuvlarni umumlashtiradi (Dhir, 2015). Bu tadqiqotda eksportning gorizontal va vertikal diversifikatsiyasiga ta'sir omillari qayd etilgan. Shu bilan birga bu tadqiqotda asosan mikro darajada korxonalarining diversifikatsiyasiga oid tadqiqotlar o'rganilgan, a asosan firmalarga ta'siri baholangan. Eksport diversifikatsiyasi orqali iqtisodiyotda tashqi ijobiy samara va yangi imkoniyatlar yaratish masalasi Herzer va Nowak-Lehmann tomonidan tadqiq etilgan (Herzer & Nowak-Lehmann, 2004). Bu tadqiqotda Chining eksport va iqtisodiy o'sishga oid 40 yillik ma'lumotlar tahlil asosida mamlakatda vertikal diversifikatsiyaning iqtisodiy o'sishiga ta'siri pastligi, buning asosiy sababi bu diversifikatsiya qishloq xojalik eksporti hisobidan amalga oshirilganligi, yuqori texnologiyali tarmoqlar ishtiroki sustligini qayd etgan.

Alemu Afrika va Sharqiy Osiyo mamlakatlari tajribasida gorizontal va vertikal diversifikatsiyaga ta'sir etuvchi omillarni o'rganib bu hududlarda omillar ta'siri farqlanishini ko'rsatib bergan (Alemu, 2008). Xususan, xorijiy investitsiyalar Sharqiy Osiyoda vertikal va gorizontal diversifikatsiyani tezlashtirsa, Afrikada faqat vertikal diversifikatsiyaga ta'sir ko'rsatgan. Inson kapitalining ham Sharqiy osiyda ta'siri yuqori bo'lgan. Afrika mamlakatlarida siyosiy beqarorlik savdo diversifikatsiyaga salbiy ta'siri etuvchi asosiy omillardan biri bo'lgan. Vertikal diversifikatsiya oid tadqiqotlarni boshqa ishlarda ham ko'rishimiz mumkin. Pahl va Timmer tadqiqotida global qiymat zanjirlari (GVCs) rivoji natijasida vertikal ixtisoslashuv 1990-yillardan boshlab sezilarli darajada o'sganligi, biroq 2008-yilgi global moliyaviy inqirozdan keyin sekinlashganligini aniqlashgan (Pahl & Timmer, 2019). Vertikal diversifikatsiya jarayonlarining hududiy farqlari ham bor, Osiyoning rivojlanayotgan mamlakatlari xalqaro qo'shilgan qiymatlariga qo'shilish jarayoni nisbatan tezroq amalga oshgan, Yevropa mamlakatlarida sezilarli o'zgarish bo'lmagan, tabiiy resurslar eksportiga qaram mamlakatlarda vertikal diversifikatsiya jarayonlari sust bo'lgan. Raudszus va boshqalar vertikal diversifikatsiyani kompaniyalar darajasida ko'rib chiqib, bu ularning daromadlilikini oshirish qayd etganlar (Raudszus, Schiereck, & Trillig, 2014).

Eksport diversifikatsiyaning uning tarkibining o'zgarishi ta'minlaydi, uning iqtisodiy rivojlanishda ijobiy ta'siri sezilarli bo'lishi uchun tarkib sifati ham oshishi lozim. Ya'ni eksport o'sishi miqdor yoki sifat (narx) hisobidan bo'ladi, tadqiqotlar ko'rsatishicha, rivojlanayotgan va tabiiy resurslarga boy mamlakatlarda eksportning o'sishida asosan miqdor muhim o'rin tutadi (Otamurodov et al., 2016). Eksport diversifikatsiyasi siyosati o'sish barqarorligida asosiy vosita

ekanini empirik tadqiqot natijalari ham isbotlaydi (Amiri & Beshkhor, 2017). Bu kabi natijalar, ya'ni, eksport diversifikatsiyasi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi ijobiy bog'liqlik ko'plab boshqa tadqiqotlarda ham ko'rish mumkin (Sannasee, Seetanah, & Lamport, 2014). Tabiiy resurslarga boy (ayniqsa neft) mamlakatlarda diversifikatsiya eksport tarkibida yuqori texnologiyaga asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirishga ko'maklashishini ko'rsatadi (Haini, Loon, & Li, 2023).

O'zbekiston bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda milliy eksportning xomashyo mahsulotlariga bog'liqligi, tarmoqlararo diversifikatsiyani kengaytirish zarurligi ham asoslab berilgan. Buning uchun O'zbekiston eksportida diversifikatsiya strategiyasini takomillashtirish muhim (Kodirjonov, 2020). Milliy eksportni diversifikatsiya qilishda asosiy muammo sifatida logistika xarajatlarining yuqoriligi qayd etiladi (Normo'minovna, 2023). Transport xarajatlarining yuqoriligi o'z navbatida mamlakatimiz tashqi savdosi sanoqli bozorlarga bog'liqligi yuqoriligi saqlab qolmoqda, eksportchilarni qo'llab-quvvatlashning amaldagi mexanizmining samaradorligi past, shu sababli uni takomillashtirish zarur (Otamurodov, 2022). O'zbekiston eksportining diversifikatsiyasini oshirishda kichik biznesning eksport imkoniyatlarini to'liq safarbar etish muhim (Eshkulova, 2024).

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda O'zbekistonning 2017–2024-yillardagi eksportiga oid xalqaro savdo statistikasi tahlil qilinib, asosiy tendensiyalar, o'zgarishlar va ularga ta'sir etuvchi omillar aniqlangan. Tahlilda Xalqaro Standartlashgan Savdo Tasniflagichining 5-raqam darajasidagi ma'lumotlardan foydalanilgan bo'lib, ushbu tasnifda uch mingdan ortiq mahsulot mavjud. Mazkur tasnifni tanlash tarmoqlar kesimida diversifikatsiya darajasini aniqlash imkonini yaratadi. Gorizontaal diversifikatsiya eksportdagi tovarlar soni hamda Herfindal-Hirshman indeksi yordamida, vertikal diversifikatsiya esa, eksport mahsulotlari o'rtacha narxining oshishi orqali baholandi. Olingan natijalarning savdo hajmlari bilan o'zaro bog'liqligi ekonometrik modellashtirish asosida tahlil etildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

2017–2024-yillar davrida O'zbekiston eksportining ijobiy o'sish tendensiyasi kuzatildi. Shuningdek, eksport tarkibidagi tovarlar soni ham sezilarli oshdi, 2017-yilda eksport tarkibidagi tovarlar soni 962 ta bo'lgan bo'lsa, keyingi yillarda bu ko'rsatkich doimiy ravishda oshib, 2022-yilda — 1640 tagacha yetdi, keyingi yillarda biroz pasaydi (1-jadval). Bu O'zbekiston eksportining gorizontaal diversifikatsiya borasida ijobiy natijalarga erishganligini ko'rsatadi.

1-jadval

O'zbekiston eksportining diversifikatsiyasi tahlili natijalari

Yillar	TS	O'_Q	HHI
2017	962	1,540	0,209
2018	1031	1,768	0,170
2019	1105	6,417	0,127
2020	1343	5,373	0,123
2021	1476	7,460	0,078
2022	1640	4,871	0,069
2023	1597	6,503	0,112
2024	1559	6,145	0,142

Manba: Jahon bankining ma'lumotlari asosida mualliflar hisob-kitoblari.

Izoh: TS- tovarlar soni; O/Q – o'rtacha qiymati (ya'ni bir kg mahsulotning AQSh dollaridagi qiymati; HHI — Herfindal-Hirshman indeksi

Bunga mos ravishda eksportning konsentratsiya darajasini ifodalovchi Herfindahl-Hirschman indeksi (HHI) 2017-yilda 0,209 bo'lgan bo'lsa, 2022-yilda eng past ko'rsatkichga (0,069) tushgan. 2023 va 2024-yillarda esa HHI qayta o'sib, 0,112 va 0,142 ga yetgan, bu esa tovarlar soni kamayishi bilan bog'liq bo'lib, ayrim yirik tovarlar ulushining oshganini ko'rsatadi. Shunday bo'lsa-da, umumiy nuqtai nazardan 2017-yilga nisbatan diversifikatsiya darajasi nisbatan yuqori darajasiga erishgan. Ya'ni bu davrda diversifikatsiyasi o'rtachadan yuqori darajaga o'sgan. Yuqoridagi ikkala ko'rsatkich ham (tovarlar soni va HHI) gorizontal diversifikatsiyani ifodalaydi, shu sababli mamlakatimizda eksportning mazkur diversifikatsiya turi bo'yicha ijobiy natija ko'rsatganligi to'g'risida xulosa qilishimiz mumkin.

Vertikal diversifikatsiya ko'rsatkichlarini baholashda eksportning o'rtacha qiymati (O_Q) muhim ahamiyatga ega. Bu ko'rsatkich 2017-yilda \$1,54/kg bo'lib kuzatilayotgan davrda barqaror oshib borgan. Ayniqsa, 2019-yildan boshlab eksport tarkibida qayta ishlangan, qo'shilgan qiymati yuqori mahsulotlar ulushi ortganligini O_Q \$6–7 ko'rishimiz mumkin. 2021-yilda mazkur ko'rsatkich o'sib (\$7,46), 2022-yilda sezilarli pasaygan (\$4,87). 2023 va 2024-yillarda yana oshgan (mos ravishda \$6,5 va \$6,4). Bu esa vertikal diversifikatsiya sifat jihatdan barqaror emasligini hamda eksportning qiymatiga tor doiradagi mahsulotlar ta'siri yuqoriligidan dalolat beradi.

Tahlilimizda mamlakatimizning yuqoridagi diversifikatsiya ko'rsatkichlari mamlakatlar kesimida ham o'rganildi. Quyidagi jadvalda O'zbekistonning asosiy savdo hamkorlari bo'yicha eksport diversifikatsiyasi ko'rsatkichlari hisob-kitoblari natijalari keltirilgan (2-jadval). Tahlillar ko'rsatishicha, qo'shni mamlakatlarga (Qozog'iston va Qirg'iziston) nisbatan ko'proq turdagi mahsulotlarni yetkazib berilgan. Bu mamlakatlarga ko'p miqdorda tovarlar eksport qilingan (2024-yil mos ravishda 858 va 928). Buning asosiy sababi sifatida geografik yaqinlik, qulay logistika sharoiti va transport xarajatlarining pastligi bilan asoslashimiz mumkin. Ya'ni, qo'shni davlatlarga eksportda transport xarajatlari kam bo'lgani uchun ham turli toifadagi, jumladan, qiymati nisbatan arzon xomashyo va yarim tayyor mahsulotlarni yetkazib berish iqtisodiy jihatdan foydali bo'ladi. Shu bilan birga Afg'oniston ham qo'shni mamlakat bolishiga qaramasdan eksport qilingan tovarlar soni yuqoridagi mamlakatlarga nisbatan kam, ammo so'nggi yillarda ularning soni sezilarli ko'paydi. Aksincha, uzoq xorij mamlakatlar (Xitoy va Turkiya) ga eksport qilingan tovarlar soni sezilarli kam. 2024-yilda Xitoyda 229 ta, Turkiyaga 370 turdagi tovar eksport qilingan. Shu bilan birga bu mamlakatlarga eksport qilingan mahsulotlarning o'rtacha narxi ancha yuqori (Xitoyda – 6.758 AQSh dollari/kg, Turkiyada – 8.153 AQSh dollari/kg). Bu esa uzoq masofaga arzon mahsulot tashish transport xarajatlari hisobidan iqtisodiy jihatdan samarasiz ekanligini va qayta ishlangan, qo'shilgan qiymati yuqori mahsulotlar eksport qilish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi. Nazarimizda uzoq xorijiy mamlakatlarga vertikal diversifikatsiya, ya'ni mahsulotlarning qayta ishlangan va yuqori qiymatli mahsulotlar orqali kengaytirish maqsadga muvofiq.

Rossiyaga yo'naltirilgan eksportning tahlil qiladigan bo'lsak, tovar turlari 2017-2024-yillar davomida 362 tadan 927 gacha oshgan, mahsulotlarning o'rtacha qiymati esa 1.571 dan 7.628 AQSh dollargacha ko'tarilgan, Qiziqarlisi, bu mamlakat qo'shni davlat bo'lmasa ham tovarlar soni nisbatan yuqorigini ko'rishimiz mumkin. Nazarimizda bu bir tomondan Rossiya bilan savdo munosabatlari sohasida ko'p yillik tajriba mavjudligi, ikkinchi tomondan, Rossiya bozoriga mahsulotlarni yetkazib berish bo'yicha logistikaning samarali yechimlar topilganligi bilan bog'lashimiz mumkin.

Herfindal-Hirshman indeksining mamlakatlar kesimida tahlili ko'rsatishicha, diversifikatsiya darajasi barcha mamlakatlar uchun past, Bu mamlakatimiz eksportida yangi tovarlar ko'paysihi bilan, ular eksport hajmida ulushi yuqori emasligidan dalolat beradi. Bizningcha, eksportning yaqin xorij mamlakatlarga o'sishida gorizontal diversifikatsiya, uzoq xorij mamlakatlarga esa, gorizontal diversifikatsiya bilan bir qatorda vertikal diversifikatsiyaning ahamiyati yuqori bo'lgan.

2-jadval

Mamlakat eksporti diversifikatsiyasining asosiy hamkorlar kesimida tahlili natijalari

Yillar	Afg'oniston			Rossiya			Xitoy		
	TS	O'_Q	HHI	TS	O'_Q	HHI	TS	O'_Q	HHI
2017	183	0,401	0,287	362	1,571	0,092	122	1,555	0,199
2018	147	0,546	0,268	414	1,619	0,089	95	2,184	0,252
2019	166	1,649	0,555	421	5,178	0,471	85	6,758	0,543
2020	353	1,640	0,601	467	4,913	0,324	122	4,590	0,413
2021	213	3,746	0,722	529	7,628	0,318	190	6,488	0,415
2022	211	5,565	0,713	927	4,956	0,309	179	5,393	0,462
2023	307	7,234	0,713	925	4,599	0,315	224	5,709	0,383
2024	601	2,986	0,606	764	3,923	0,315	229	5,196	0,309
Yillar	Qozog'iston			Qirg'iziston			Turkiya		
	TS	O'_Q	HHI	TS	O'_Q	HHI	TS	O'_Q	HHI
2017	493	0,506	0,063	521	0,606	0,035	107	1,109	0,154
2018	501	0,607	0,110	551	0,919	0,062	134	2,666	0,220
2019	524	1,787	0,471	521	3,912	0,304	156	5,975	0,313
2020	628	1,115	0,379	758	3,907	0,317	156	5,383	0,323
2021	718	2,921	0,394	928	6,857	0,307	248	8,153	0,307
2022	808	1,888	0,298	896	4,679	0,324	233	6,769	0,303
2023	797	2,415	0,305	832	2,937	0,315	370	5,229	0,293
2024	858	1,793	0,353	797	1,614	0,337	343	4,739	0,310

Manba: Jahon bankining ma'lumotlari asosida mualliflar hisob-kitoblari.

Tadqiqotimizda yuqorida ko'rib chiqilgan eksport diversifikatsiya ko'rsatkichlarini tarmoqlar kesimida ham ko'rib chiqildi. Tarmoq sifatida XSSTning bir raqam darajasidagi bo'limlar olindi. Tahlil natijalarimiz ko'rsatishicha, "Mashinalar, transport va asbob-uskunalar" (+179), "Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari" (+156) va "Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar" (+126) kabi mahsulotlarning turi eksportda sezilari o'sgan (3-jadval).

Agar tovarlar sonidagi ulushini tahlil qiladigan bo'lsak, 2024 yilda 28,5 foiz tovarlar "Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari" dan iborat bo'lgan. Bu esa, mamlakatimiz eksportida son jihatdan mahsulot narxi shakllanishida qayta ishlov berish qiymati emas, balki, material qiymati yuqori bo'lgan mahsulotlar ulushi yuqori bo'lganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, eksportda mashina, transport vositalari va asbob-uskunalarining bo'limiga oid mahsulot turlari ham ortib borgan, bu esa, istiqbolda shu toifadagi mahsulotlarning tashqi bozorda o'z o'rnini egallashi uchun shart-sharoit yaratadi.

Eksport diversifikatsiyasi bo'yicha mahsulotlarning o'rtacha qiymati (O'_Q) va Herfindal-Hirshman indeksi (HHI) ko'rsatkichlari tarmoqlar (mahsulot guruhleri) kesimidagi tahlili ko'rsatishicha, aksariyat tarmoqlar bo'yicha mahsulot diversifikatsiya darajasi yuqori va oshish tendensiyasi mavjud (4-jadval).

Xususan, oziq-ovqat, tirik hayvonlar, nooziq-ovqat xomashyosi va mineral yoqilg'i va boshqa guruhlardagi mahsulotlarning o'rtacha qiymati bir AQSh dollariga ham yetmaydi. Bundan tashqari, ushbu tovarlarning o'rtacha narxida ham sezilarli o'sish kuzatilmagan, Shu

bilan birga ayrim tovar guruhlari bo'yicha qo'shilgan qiymat ortib borayotgani ko'rish mumkin. Masalan, ichimliklar va tamaki mahsulotlarida o'rtacha narx 0,38 dollardan 0,92 dollarga, oshgan. Shuningdek, asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari, mashinalar va transport asbob-uskunalari, turli xil tayyor buyumlar guruhlari bo'yicha ham o'rtacha narxning o'sishi kuzatilgan. Ayniqsa, mashina va transport vositalari eksportida o'rtacha narx 6,90 dollardan 10,05 dollarga yetgan, turli tayyor buyumlarda esa o'rtacha 9 dollardan yuqori darajada saqlanmoqda. Bu esa O'zbekiston eksportida texnologik va yuqori qiymatli tovarlar ulushi oshayotganini ko'rsatadi.

3-jadval

Eksportdagi mahsulotlar soni (tarmoqlar kesimida)

Kod	Mahsulot guruhi	2017	2020	2024	O'sish farq (+/-)	Ulushi (%)	
						2017	2024
0	Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	101	143	148	+47	10,5	9,5
1	Ichimliklar va tamaki	8	9	9	+1	0,8	0,6
2	Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	61	68	72	+11	6,3	4,6
3	Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	7	7	7	0	0,7	0,4
4	Hayvonlar va o'simliklar moylari (yog'lari), yoglar va mumlar	3	9	14	+11	0,3	0,9
5	Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	122	162	248	+126	12,7	15,9
6	Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	295	414	445	+150	30,6	28,5
7	Mashinalar va transport asbob-uskunalari	192	305	371	+179	19,9	23,8
8	Turli xil tayyor buyumlar	172	224	243	+71	17,9	15,6
9	Boshqa tovarlar	2	2	2	0	0,2	0,1
	Jami	963	1343	1559	+596	100,0	100,0

Manba: Jahon bankining ma'lumotlari asosida mualliflar hisob-kitoblari.

ko'rsatkichlari esa ko'pchilik mahsulot guruhlari bo'yicha past yoki pasayib borayotganini ko'rsatadi. Oziq-ovqat, kimyoviy vositalar, sanoat tovarlari va mashinalar guruhlari indeks doimo juda past bo'lib, bu eksportning ichki tarkibida mahsulotlarning gorizontall diversifikatsiya darajasini yuqoriligini ko'rsatadi. Ichimliklar va tamaki, hayvon va o'simlik moylari hamda mineral yoqilg'ilar guruhida esa konsentratsiya nisbatan yuqori bo'lib qolmoqda, bu esa ayrim asosiy tovarlarga qaramlikning saqlanib qolganidan dalolat beradi. Ayniqsa boshqa tovarlar guruhida bu ko'rsatkich juda yuqori bo'lib, diversifikatsiya darajasi past bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Mamlakatimiz eksportida oltinning ulushi 26,7 foizni (2024) tashkil etadi. Bu esa o'z navbatida eksportimizning mazkur xom ashyoga bog'liqligini saqlab, uning diversifikatsiya ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir etadi.

O'zbekistonning eksport hajmiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash maqsadida 2017–2024 yillar bo'yicha panel ma'lumotlar asosida mamlakatlar kesimida fiksirlangan effektlar modeli (fixed effect) yordamida regressiya tahlili o'tkazildi. Bog'lanayotgan o'zgaruvchi sifatida har bir mamlakat bo'yicha umumiy eksport hajmi, tushuntiruvchi o'zgaruvchilar sifatida esa gorizontall (tovarlar soni) va vertikal diversifikatsiya (o'rtacha qiymati) ko'rsatkichlari hamda eksport konsentratsiyasi indeksi (HHI) tanlandi.

4-jadval

Mamlakat eksportining tovar guruhlari kesimida diversifikatsiya ko'rsatkichlari

Kod	Mahsulot guruhi	2017		2020		2024	
		O'_Q	HHI	O'_Q	HHI	O'_Q	HHI
0	Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	0,71	0,04	0,67	0,03	0,75	0,03
1	Ichimliklar va tamaki	0,38	0,33	0,51	0,11	0,92	0,15
2	Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	0,77	0,07	1,17	0,10	0,72	0,04
3	Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,40	0,28	0,13	0,49	0,28	0,45
4	Hayvonlar va o'simliklar moylari (yog'lari), yoglar va mumlar	0,47	0,70	0,81	0,17	0,97	0,26
5	Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	0,50	0,07	0,44	0,05	0,61	0,03
6	Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	1,00	0,05	1,84	0,06	2,06	0,04
7	Mashinalar va transport asbob-uskunolari	6,90	0,05	8,67	0,03	10,05	0,05
8	Turli xil tayyor buyumlar	9,16	0,04	7,10	0,03	9,20	0,02
9	Boshqa tovarlar	40750,3	1,00	58044,4	0,85	71407,9	1,00

Diversifikatsiya darajasini ifodalovchi Herfindal-Hirshman indeksi

Regressiya natijalari shuni ko'rsatdiki, kiritilgan barcha o'zgaruvchilar orasida eksport hajmiga eng katta va statistik jihatdan ahamiyatli ta'sirni gorizontaal diversifikatsiya (tovarlar soni) ko'rsatadi. Ushbu o'zgaruvchining regressiyadagi koeffitsienti taxminan 4,16 million AQSh dollarini tashkil etdi ($p < 0.01$). Ya'ni 5 xonali XSST tasnifi bo'yicha eksport qilinayotgan mahsulotlar sonining har bir birlikka ko'payishi o'rtacha eksport hajmini 4,16 million dollarga oshiradi. Bu holat eksport siyosatini shakllantirishda mahsulot turini kengaytirish muhimligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, eksportning konsentratsiya darajasini ifodalovchi HHI ($p = 0.452$) va eksport mahsulotlarining o'rtacha narxi (vertikal diversifikatsiya ko'rsatkichi) ($p = 0.343$) statistik jihatdan ahamiyatli bo'lmadi. Bu O'zbekiston eksportining hozirgi tarkibida asosiy ta'sir omili sifatida mahsulotlar soni — ya'ni gorizontaal diversifikatsiya ustunligini bildiradi.

Modelning determinatsiya koeffitsiyenti (R^2) 0.0517 ga teng bo'ldi, shu bilan birga model umumiy holda statistik jihatdan ahamiyatli deb topildi ($F = 4.32$, $p = 0.006$).

Ushbu natijalar tadqiqot davri uchun eksport hajmini oshishida gorizontaal diversifikatsiyani muhim bo'lganligini ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar.

2017–2024 yillar davomida O'zbekiston eksportining tarkibiy diversifikatsiyasi bo'yicha o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, mamlakatda eksport hajmining o'sishida mahsulotlar soni ortishi — ya'ni gorizontaal diversifikatsiya — muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, yaqin xorijdagi mamlakatlar (Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Afg'oniston kabi) bilan savdo aloqalarida ko'plab turdagi mahsulotlarni eksport qilish eksport hajmiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Uzoq xorij mamlakatlari (Yevropa Ittifoqi davlatlari, AQSh, Janubiy Koreya, Yaponiya va boshqalar) uchun esa eksportda nafaqat mahsulotlar sonining ko'pligi (gorizontaal diversifikatsiya), balki yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ulushining yuqoriligi — ya'ni

vertikal diversifikatsiya ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa O'zbekiston eksport siyosatida vertikal diversifikatsiyani rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekistonning geografik jihatdan ichki quruqlikda joylashgani va transport-logistika xarajatlarining yuqoriligi mahsulotlarni uzoq bozorga yetkazishda qo'shilgan qiymati past xomashyo va yarim tayyor mahsulotlardan ko'ra, yuqori qiymatli tayyor mahsulotlarni eksport qilishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, texnologik qayta ishlash darajasi yuqori, innovatsion va eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish muhim strategik vazifadir.

Tahlillar, shuningdek, O'zbekiston eksportining muayyan tovarlarga, ayniqsa, oltin eksportiga yuqori darajada bog'liqligini ko'rsatdi. Bu esa eksport tarkibidagi konsentratsiya darajasini oshiradi va tashqi savdo barqarorligiga xavf tug'diradi. Shu bois, kelgusida eksport tarkibini diversifikatsiya qilish orqali ushbu qaramlikni kamaytirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

- Alemu, A. M. (2008). *Determinants of vertical and horizontal export diversification: Evidences from sub-Saharan Africa and East Asia*. *Ethiopian Journal of Economics*, 17(2), 1–25.
- Amiri, H., & Beshkhor, M. (2017). *Horizontal and vertical diversification policies of export and their effect on economic growth: Markov switching approach*. *Economic Growth and Development Research*, 8(29), 127–144.
- Dhir, S. (2015). *Diversification: Literature review and issues*. *Strategic Change*, 24(6), 569–588.
- Haini, H., Loon, P. W., & Li, P. L. (2023). *Can export diversification promote export upgrading? Evidence from an oil-dependent economy*. *Resources Policy*, 80, 103292.
- Herzer, D., & Nowak-Lehmann, D. F. (2004). *Export diversification, externalities and growth*. *IAI Discussion Papers*, (99), 1–27.
- Kodirjonov, A. M. (2020). *Diversification of foreign trade and its necessity for the export of Uzbekistan*. *Theoretical & Applied Science*, (6), 435–439.
- Normo'minovna, E. N. (2023). *O'zbekiston eksporti diversifikatsiyasining yo'nalishlari*. *Journal of Universal Science Research*, 1, 599–610.
- Otamurodov, S., et al. (2016). *The role of extensive margin and intensive margin in Kazakhstan's export growth*. *Ecoforum Journal*, 5(2), 1–20.
- Otamurodov, Sh. (2022). *O'zbekiston eksporti diversifikatsiyasining zamonaviy muammolari*. *Economics and Innovative Technologies*, 10(4), 355–364.
- Pahl, S., & Timmer, M. P. (2019). *Patterns of vertical specialisation in trade: Long-run evidence for 91 countries*. *Review of World Economics*, 155, 459–486.
- Raudszus, M., Schiereck, D., & Trillig, J. (2014). *Does vertical diversification create superior value? Evidence from the construction industry*. *Review of Managerial Science*, 8, 293–325.
- Sannasse, R. V., Seetanah, B., & Lamport, M. J. (2014). *Export diversification and economic growth: The case of Mauritius*. In *Connecting to Global Markets* (pp. 11–23). WTO iLibrary.
- World Bank Group. (n.d.). *World Integrated Trade Solution (WITS)* [Onlayn ma'lumotlar bazasi]
- Эшкурова Н. (2024). Пути повышения роли малого бизнеса в эффективном использовании экспортного потенциала Узбекистана. *Экономическое развитие и анализ*, 2(6), 49–59.